

qaraladı. Shuǵıl sózge ermew, kisini sırtınan saymaw, ótirik sóylemew, jaman islerden awlaq bolıw, haqıyqatlıqqa tuwra qaraw, márt bolıw, óz sózinde turıw, úlkenge húrmet, kishige izzet kórsetiw, ata-ananı húrmetlew, el-xalıq, watan mápin hámme nárseden ústin qoyıy kerekligi uqtırıladı. Sonıń ushın da dástandı uyrengen waqtımızda Gúlayım hám onıń qırıq qızında usı qásiyetlerdiń jámleskenligin kóremiz.

E.Orazimbetov óziniń izertlewlerinde “Qırıq qız” dástánı haqqında “Dástánnıń tiykarǵı ideyası jaslardı hadal miynet etiw, watandı qorgaw, tuwılǵan jurttıń gárezsizligi ushın gúresiwe shaqırıwdan ibarat. Onda jaslardı mártlikke, batırılıqqa shaqıratuǵın sonday qatarlar bar, bul qatarlardı oqıǵan hár bir oqıwshı dástán qaharmanları menen bir qádemde bolıwı anıq” – dep jazadı [5].

Álбетте, qaraqalpaq xalıq awız eki dóretpeleriniń hár birinde insanlardıń bir-biri menen ádep-ikramlı qarım-qatnası, izzet-hurmeti ayırıqsha orın iyeleytuǵınlıǵı, onıń tárbıyalıq áhmiyeti hám tásiiri haqqında bahalı pikirler keltirilgen.

Sonıń ushında qaraqalpaq xalıq awız eki dóretpeleri:

- tereń mániligi;
- ıqshamlılıǵı;
- ápiwayılılıǵı.
- óz-ara uyǵınlılıǵı;
- kóp variantlılıǵı;
- tárbıyalıq usıllardıń tásirshenligi menen úlken áhmiyetke iye.

Shańaraqta da ata-ana balalarına mudamı ádep-ikramı menen órnek bolıwı kerek. Xalqımızda “Qus uyada neni kórse, ushqanda sonı qıladı” degen danalıq sóz bar. Bala baqshaları, mektepler, kásip-óner mektepleri hám joqarı oqıw orınlarında da tárbıyashı-oqıtıwshılar tálim-tárbıya beriw barısında óziniń is-háreketleri, ádep-ikramı, tuwrı sózi menen órnek bolıwı kerek. Ustazdıń qarım-qatnas ádebi jaslarda ádep-ikramlılıq kompetentleriniń qalıplesiwin támiyinleydi. Sonday-aq, búgingi kúnde ádep-ikramlılıq tárbıyanıń eń jaydırıwdıń zamanagóy qurallarınan biri sociyalıq tarmaqlar hám teleradio esaplanadı. Teleradio arqalı milliy miyraslar haqqında turaqlı kórsetiwler,

Ádebiyatlar

1. Юсупов Э., Юсупов Ы. Оила-маънавият булоғи. -Т.: 2003. 104-б.
2. Оразимбетов Е.К. Қарақалпақ халқ педагогикасида ёшларни ватанпарварликка тарбиялаш анъаналари . п.ф.б.ф.д. (PhD). . дис. ... Авторе ф. – Нукус: 2024. 24-б.
3. Қарақалпақ этнопедагогикасы. Муаллифлар жамоаси. -Н.: «Билим», 2010. 128-б.
4. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. VII том. Алпамыс дәстаны. -Н.: 1981. 217-б.
5. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. VI том. Кырық қыз дәстаны. -Н.: 1980. 463-б.

РЕЗЮМЕ. мақоллада қарақалпақ халқ идиодияти асосида yoshlarnı adob-aqloqqa ta’rbiyalash vaziiypalari ha’r tomonlama pedagogikalıq nuqtay-nazardan bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье описывается положение каракалпакского народа и проблемы литературного воспитания молодежи с педагогической точки зрения.

SUMMARY. The article describes the situation of the Karakalpak people and the problems of literary education of youth from a pedagogical point of view.

BO‘LAJAK TABIIY FAN O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

B.Yakubova – tayanch doktorant

O‘zbekiston milliy universiteti

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, kasbiy, maxsus, umummadaniy, shaxsiy kompetensiyalar, tabiiy fanlar, kasbiy kompetentlik modeli.

Ключевые слова: компетенция, профессиональный, специальный, личностная компетентность, естественные науки, модель профессиональной компетентности.

Key words: competence, professional, special, universal, personal competence, natural sciences, model of professional competence.

Kirish. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy ehtiyoji bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmonida ham ta’lim tizimini takomillashtirish va shu orqali o‘quvchi-yoshlarning yetuk, barkamol shaxs sifatida kamol topishlariga qaratilgan ustuvor vazifalar kiritilgan [9].

esittirivler qoyılıp barılsa jaslardıń jaqsı tálim-tárbıya alıwına úles qosadı.

Juumaqlap aytqanda qaraqalpaq xalıq dástanlarında jámlengen qaraqalpaq xalıq etnopedagogikası materiallarında jaslardı ádep-ikramlılıqqa tárbıyalaw isleri dáslep ata-ananıń, keyin arnawlı ustazlardıń, tárbıyashılardıń basshilıǵında ámelge asırılǵan. Dástanlardıń eń dıqqat-itıbardı tartatuǵınlılıǵınıń tiykarǵı sebebi-bunda jaslarǵa kishkeneliginen baslap ádep-ikram tárbıyasın beriw, eldiń keleshegin oylaw, opadarlıq, doslıq, amanat, isenim hám basqada unamlı sıpatlardıń sawleleniwinde kórinedi.

Xalıq dástanlarındaǵı kaharmanlardıń obrazların salıstırıwlar arqalı oqıwshılar ádeplilik hám ádepsizlik, iymán hám insap, jaqsı menen jaman haqqında ájayıp túsiniqlerge iye boladı.

Qaraqalpaq xalıq etnopedagogikası materiallarında ádep-ikram tárbıyası máseleleri qashan, neni hám qalay tárbıyalaw kerek degen mashqalalarda óz sáwleleniwın tabadı. Bul mashqalalardıń sheshiliwi de biziń milliy úrp-ádet dástúrlerimizge sáykes keledi.

Xalıq dástanları, ondaǵı pedagogikalıq mazmunǵa iye bolǵan kórinisler, olardı tárbıya islerinde paydalanıw — qaraqalpaq xalıq pedagogikasınıń dúrdanalarına ashılǵan sátli qádemlerdiń biri bolıp esanlanadı. Qaraqalpaq xalıq pedagogikası materialları muǵallimlerde, tárbıyashılarda bala tárbıyası menen shuǵıllanıwshı barlıq ata-analarda tárbıya islerinde sózsiz unamlı tásinin tiygizedi.

Juumaqlap aytqanda qaraqalpaq xalıq dóretpelerinde jaslardı ádep-ikramlılıqqa tárbıyalawdıń túrli usılları jámlengen. Olardıń eń itibardı tartatuǵınlılıǵınıń tiykarǵı belgisi hár bir insańǵa ózin-ózi tárbıyalaw, danışpanlıqqa qulaq túriw ádep-ikramlılıq tárbıyanıń tiykarı ekenligin kórsetedi. Onda keleshekti oylaw, opadarlıq, doslıq, amanat, isenim hám basqada sıpatlar tereń sáwlelengen. Olardı oqıw arqalı ádep hám ádepsizlik, iymán, insap, jaqsılıq hám jamanlıq haqqında túsiniqke iye bolamız. Sonlıqtan qaraqalpaq xalıq dóretpelerindegi tárbıya máselelerin hár tárepleme úyreniw, izertlew hám shańaraqta, oqıw orınlarında keń qollanıw jas áwladqa tálim-tárbıya beriw jumıslarında unamlı tásinin tiygizedi.

Kompetensiya va ko'nikma bir xilga o'xshab ko'rinsa-da, lekin turlicha tushunchalardir. Ko'nikmalar o'rganiladi, kompetensiya esa shaxsning o'ziga xosligi – ko'nikma, bilim va qobiliyatni birlashtiradi.

Ko'nikma va kompetensiya o'rtasidagi farq nimada? Ikkala tushunchaning tub ma'nosida yaxshi ish qilish qobiliyati yotadi. Biroq, ushbu ikki terminni ishlatilishida o'ziga xos farqlar mavjud. Ko'nikmalar, shubhasiz, yangi lavozimga tayinlash yoki mavjud xodimlarning imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, alohida holda, ular shaxsning rolda muvaffaqiyat qozonishini yoki sog'lom iste'dodli hayot tarziga aylanishini baholash uchun yetarli emas.

Bunda vakolat tushunchasi paydo bo'ladi. Quyida mahorat va vakolat tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rib chiqamiz: Mahorat-bu biror narsa qilish qobiliyati, vakolatlar esa xatti-harakatlardir. Fizika fanidan «Tabiatdagi kuchlar» mavzusini o'rganganingiz kabi, mashina haydashni o'rganishingiz; kimyo fanidan moddalarning tuzilishini o'rganganingiz kabi, ovqat pishirishni o'rganishingiz; biologiya fanidan o'simlik va hayvonlarning tuzilishini, hayot tarzini o'rganganingiz kabi, uy hayvonlari yoki xona gullarini parvarish qilishni o'rganishingiz– u ko'nikmadir. Kompetensiyalar shaxsning o'z ko'nikmalarini qanday amalga oshirishini belgilaydi. Misol uchun, universitetda ishlaydigan fizika fanidan bir xil mavzularni o'qitadigan bir nechta malakali professor-o'qituvchilar bo'lishi mumkin, lekin faqat shulardan ayrimlarga o'zi o'tadigan fanlarga mos keladigan metodlardan foydalanib dars berishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. «Kompetensiya» va "kompetentlik" atamalarini ushbu yondashuv uchun asosiy hisoblanadi va kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini tushunish uchun ularni talqin qilish to'g'risida qaror qabul qilish kerak. [1:23]. Kompetentlik atamasi haqida bir qator olimlarning o'z qarashlari bor. Masalan: M.A.Choshanov- «Kompetentlik» bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o'z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir degan fikni bildirgan bo'lsa, [3:150]. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassisning ma'lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. O.Ye.Lebedev- noaniq vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi. I.A.Zimnyaya esa – «kompetentlik» insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi. A.V.Xutorskiy "kompetensiya" va «kompetentlik» atamalarini quyidagicha farqlash mumkin, deb qaraydi. Kompetensiya – shaxsning individual xarakteri jamlanganligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi tushuncha va jarayonlarga qarab shaxsning munosabatida sifatli, aniq va samarali ko'rinishi hisoblanadi. A.G.Bermusning so'zlariga ko'ra, «Kompetentlik rivojlanib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borliqni yagona tizimda yig'a oladi» [6:59]

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, ta'limda professor-o'qituvchilar ta'lim jarayonida talaba yoshlarni o'qitishda kompetentlik yondashuvga alohida ahamiyat berishi, talabalar nimani o'rganishi kerakligi emas, balki o'rganish natijasida nimalarni o'rganishi yoki nima qilishiga e'tibor qaratishlari kerak [5:55].

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari insoniyat faoliyati davomida u bilan rivojlanadigan tushunchalardan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Kompetentlik - bilimdonlikni, kasbga xoslik, malaka va tajribani, rahbarlikni faoliyatiga singdirib borishdir. Kompetensiya esa - har qanday ish jarayonida o'z qobiliyat va iqtidorlarini namoyish eta bilishidir [4:175]. Shuning uchun ham, bugungi kunda bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratish kerakligini ko'rsatadi. Ayni kunlarda kompetensiyaning har xil turlari bor. Bular: shaxsiy, kasbiy, umummadaniy,

maxsus. Ushbu kompetensiyalar bo'lajak tabiiy fan o'qituvchilarida shakllanishi kerak.

Maxsus kompetensiya - yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallashi va keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashi tushuniladi.

Tabiiy fan o'qituvchilarida shaxsiy kompetensiyani rivojlanganligi ularning muloqotchanligida, bag'rikengligida, yetakchilik qobiliyatiga, tashabbuskorligida, auditoriya va jamoaga, talaba yoki o'quvchilar jamoasiga moslashuvchanligida, sog'lom turmush tarziga amal qilishida, kasbiy vazifalarini mas'uliyat bilan bajari-shiga, ishchanlik, insonparvarlik, umummadaniy, ma'lumotli, madaniyatli, umuminsoniy qadriyatlarga egalik, milliy madaniyatga ega bo'lish, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi bilan baholanadi.

Tabiiy fan o'qituvchisida umummadaniy kompetensiya esa - har qanday vaziyatda talaba va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishi hamda o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlikni his eta olishi bilan belgilanadi. Shuningdek, ta'limiy mazmundan, vaziyatdan, holatdan kelib chiqib, har qanday o'qituvchining maqsadi auditoriya "Rivojlantiruvchi muhitni" yaratishdan iborat. Ya'ni:

- talabalarga faoliyatga undovchi motivatsiya berish;
- talabalarni mustaqil ishlatish, o'quv faoliyatiga undash orqali tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarni shakllantirish.

- talabalar tomonidan mavzuni, maqsad, vazifalarini murakkablik darajasini, shakl va usullarni mustaqil ravishda tanlash;

Kasbiy kompetensiya - faoliyat doirasida individuallikni mustaqil qo'llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorlash.

Kasbiy kompetensiyaning rivojlanish ketma-ketligini ko'rib chiqsak:

- O'z-o'zini tahlil qilish va kerakli tushunchalarni anglash;
- O'z-o'zini rivojlantirishni belgilash, maqsad-vazifani aniqlash;
- O'z-o'zini ko'rsatish va kamchiliklarni tuzatish;

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni bajarish uchun kerakli bo'lgan bilim, ko'nikmaga egaligi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Bo'lajak o'qituvchilar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:


- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish; o'z ustida muntazam ravishda ishlash; ta'lim jarayonini rejalashtirishi, baholay bilishi va qayta aloqani o'rnatish; talabalar ehtiyojini anglay olishi; talabalarga motivatsiya berib borish; ta'lim muhitiga yangilik kiritishi; o'z fanini chuqur egallagan bo'lishi; zamon talablaridan biri ingliz tilini yaxshi bilishi shart va zarur.

O'qituvchida kasbiy kompetensiyalar shakllanishini SWOT tahlili asosida tahlil qilib borishi va o'z ustida ishlashi kerak.

Kasbiy kompetensiya shakllangan	Kasbiy kompetensiya shakllanmagan
✓ Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish; ✓ O'z fanini mukammal bilish; ✓ Talaba-o'quvchilarni ilhomlantirish olish; ✓ Muomila madaniyati, etika va estetikani bilish; ✓ O'z imidjiga, kiyinish uslubiga ega bo'lish; ✓ Shaxsiy kompetensiyani boshqara olishi;	✓ Fanini integratsiyalab o'qita olmaslik; ✓ Chet tillarini yaxshi bilmaslik; ✓ O'z ustida muntazam ishlamaslik; ✓ Aniq maqsad va vazifalarsiz ish boshlash; ✓ Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olmaslik;

Kasbiy kompetensiya shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar	Kasbiy kompetensiya rivojlantiruvchi imkoniyatlar
✓ Ba'zi professor-o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalana olmasligi; ✓ Doimiy kamchiliklari ustida ishlamasligi; ✓ Ayrim talaba-o'quvchilar bilan ishlash qiyinlashib borayotganligi; ✓ O'qituvchilarda haddan tashqari ma'suliyatning ko'pligi;	✓ Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanganligi; ✓ Barcha zaruriy xorij ma'lumotlarning ochiqligi; ✓ Chetellik malakali o'qituvchilar bilan uchrashuvlar tashkil-lashtirish; ✓ O'qituvchilarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash;

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, kasbiy kompetensiya shakllanmagan jihatlarini shakllangan qatorga o'tkaza olgan, kasbiy kompetensiya shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan imkoniyatlarini shakllantira olgan pedagog kadrlargina o'z kasbining mutaxassisi bo'la oladi [8:55-56].



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilari nafaqat kasbiy kompetensiyaga balki barcha kompetensiyalarni birdek o'zida mujassam eta olishi kerak. Masalan,

➤ Umummadaniy kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi o'rganilgan barcha maxsus bilimlarini hayotga tatbiq eta olishida mujassam bo'ladi. Ayniqsa, tabiiy fanlar o'qituvchilari fizika, astronomiya, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlarini bilishi va, albatta, bu fanlarni integratsiyalab o'qitishi, eng asosiysi, hayotiy misollar bilan tushuntira olishi juda muhim. Shundagina o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi.

➤ Shaxsiy kasbiy kompetensiya rivojlantirib borish eng muhim omillardan hisoblanadi. Negaki, o'quvchi-talabalarning muammolarini seza bilishi, ularga ta'lim berishdan oldin shaxsiy kompetensiyalarini ishga solib ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini, hayotga bo'lgan maqsad vazifalarini shakllantirib ularni ilhomlantira olishi kerak.

➤ Maxsus kasbiy kompetensiya pedagoglar uchun asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Masalan, guruhdagi yoki sinfdagi barcha talaba-o'quvchilar birdek qabul qilmaydi, bir xilda ma'lumotlarni anglay olmaydi yoki qiziqishlari ham turlicha bo'ladi. Shunday holatlarda o'qituvchilar maxsus kasbiy kompetensiya ishga solgan holda sinfdagi o'quvchilarni tabaqalashtirgan holda o'qita oladi, har biriga individual yondasha oladi. Undan tashqari, tabiiy fanlarni o'qitayotganda ham 5-sinf o'quvchilari bilan boshqa uslub va metodlardan foydalansa, 6-sinf o'quvchilariga esa aynan o'sha metodlarini boshqa ko'rinishida shaklini o'zgartirgan holatda foydalana bilisidir.

Adabiyotlar

1. Аулова Н.В. Формирование аналитико-рефлексивной компетентности будущего учителя в системе высшего профессионального образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08; Белгород. гос. нац. исслед. ун-т. -Белгород: 2011. —С. 23.
 2. Abdullayeva Sh. A., Askarov A. D. O'quv qo'llanma - Umumiy pedagogika. -Toshkent: 2019. 155-b.
 3. Choshanov M.A. Flexible technology of problem-modular teaching: A methodological guide. - M.: Public education, 1996, 150-b.
 4. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped. fan. dok. ... diss. -T.: 2019. 237-b.
 5. Vnukova N., Professor. Svitlana Achkasova, PhD. Maryna Us, PhD. Simon Kuznets Kharkiv National University of Economics. Vasyi Pyvovarov, PhD. Yaroslav Mudryi National Law University / the influence of competence potential of changes in higher education on the training of specialists for entrepreneurship // Marketing of scientific and research organizations, 2020, Vol. 38, Issue 4, -P. 49-68.
 6. Bermus A.G. / Problems and perspectives of the competency approach to education // *The Canadian Graduate Journal of Philosophy* 10:0910-12 (2005)
 7. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий 1-том. -М.: Народное образование, 1998.
 8. Ахмедова М. Педагогик компетентлик Услубий қўлланма. -Т.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. 80-b.
 9. [PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida \(lex.uz\)](#)
- РЕЗЮМЕ.** Ta'lim sifatini oshirish vazifasini muvaffaqiyatli qilish maqsadida oliy ta'lim tizimida «BKM uchligi - bilish, ko'nikma, malaka»ga o'xshagan o'qitishning «bilimdonlik yondashuvi»dan kasbiy faoliyati bo'yicha shakllangan amaliy tajribani (bitiruvchi bo'lajak o'z ishining ko'zini bilib uning ustasiga aylanishga) bag'ishlangan «kompetentlik yondashuvi»ga o'tish oliy ta'limning dolzarb masalasi hisoblanadi.

РЕЗЮМЕ. Для успешного выполнения задачи повышения качества образования актуальным вопросом высшего образования является переход от «эрудиционного подхода» к обучению в системе высшего образования, основанного на «тройке ЗУН - знания, умения, навыки», к «компетентностному подходу», основанному на формировании практического опыта профессиональной деятельности (выпускник становится ее мастером, будущего своего дела).

SUMMARY. To successfully complete the task of improving the quality of education, an urgent issue of higher education is the transition from an «erudite approach» to learning in the higher education system based on the «three KSS - knowledge, skill, skills» to a «competence-based approach» based on the formation of practical professional experience (the graduate becomes its master, the future of his business).